

## KO'ZNING SHOX VA OQSIL PARDA KASALIKLARIDA HAMSHIRALIK PARVARISHI.



*Sotvoldiyev Abdug'ulom*

*Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi  
texnikumi Oftalmologiyada hamshiralik ishi fani o'qituvchisi.*

**Shox parda** — ko'z tashqi qobig'ining shaffof tomirsiz qismi. Shox pardaning vazifasi yorug'lik nurlarini o'tkazish va qaytarish, shuningdek, ko'zning ichki qismlarini salbiy tashqi ta'sirlardan himoya qilishdan iborat.

### **Anatomiyasi**

Shox parda diametri o'rtacha 11,0 mm, qalinligi 0,5 mm dan (o'rtasida) 1,0 mm gacha, nur sindirish kuchi taxminan 43,0 dioptriyaga teng. Normada shox parda shaffof, silliq, yaltiroq, sharsimon va juda sezgir to'qima. Noqulay tashqi omillarning shox pardaga ta'siri ko'z qovoqlarining reflektor qisqarishini keltirib chiqaradi va ko'z olmasini himoyasini ta'minlab beradi (korneal refleks)

### **Qavatlari**

Shox parda 5 qavatdan iborat: oldingi epiteliya, boumen membranasi, stroma, destemet membrana va orqa epiteliy. Oldingi qavat ko'p qavatli tekis keratinlashtirmaydigan epiteliy himoya funksiyasiga ega va shikastlanganda kun davomida to'liq tiklanadi.

- Boumen membranasi — oldingi epiteliyning bazal membranasi. Mexanik ta'sirlarga chidamli.

- Stroma (parenximasi) shox parda qalinligining 90% ni tashkil qiladi. U juda yupqa plastinkalardan iborat bo'lib, ular orasida yassilangan hujayralar va ko'p sonli sezgir nerv hujayralari joylashgan.

- Destemetova membranasi — bu orqa epiteliyning bazal membranasi. Bu infeksiyaning tarqalishida himoya- barer bo'lib xizmat qiladi.

- Orqa epiteliya bir qavat geksagonal shaklli hujayralardan iborat. U oldingi kamera suyuqligini shox parda stromasiga tushishining oldini oladi, lekin regeneratsiyalanmaydi. Shox pardaning oziqlanishi tomirlarning perikorneal tarmog'i,

koʻzning old kamerasing namligi va koʻz yoshi tufayli roʻy beradi. Shox pardaning shaffofligi uning bir xil strukturaligi, qon tomirlarining yoʻqligi va suvning tarkibiga bogʻliq.

### Limb sohasi

Limb-shox pardaning skleraga oʻtish joyi. Bu kengligi taxminan 0.75-1.0 mm boʻlgan shaffof xalqadir. Qalinlashgan qismiida Shlemm kanali joylashgan. Limb shox parda va skleradagi turli patologik jarayonlarni tavsiflashda, shuningdek jarrohlik aralashuvlarni amalga oshirishda yaxshi mintaqa boʻlib xizmat qiladi



### Oqsil kasalligi

**Oqsil kasalligi** yoki **Protainopatiyalar**, yashur — asosan, juft tuyoqli hayvonlarda shiddatli oʻtadigan yuqumli kasallik. Hayvonlarning ogʻiz-burun, tuyoq va yelin terisi epiteliylarida pufakchalar hosil boʻladi. Odamlarga ham yuqishi mumkin. Kasallangan hayvonlar suti kamayadi, ozib ketadi, bola tashlaydi: 50—70% oʻladi. Oqsil kasalligi Osiyo va Afrika mamlakatlarida koʻp uchraydi.

### Qoʻzgʻatuvchisi

Filtrlanuvchi virus; u 1897-yil Leffler va Frosh tomonidan aniqlangan. Hozirgi vaqtda immunologik xossalariga koʻra, 7 xili va koʻpgina variantlari aniqdangan. O. xili — 13, S xili — 5, SAT-1—7, CAT-2 xili — 3, SAT-3 xili —4 va Osiyo -1 xili esa 2 variantda mavjud. Viruslar tashqi muhit taʼsiriga chidamli, ajralib tushgan teri epiteliylarida 67 kun, axlat va siydikda 39 kun, muzlagan goʻshtda 680 kun, koʻlmak suvda 103 kun oʻz xususiyatini saqlaydi. Sovuq uncha taʼsir qilmaydi, yuqori haroratda tez oʻladi, oʻyuvchi ishqor va formaldegid kuchli taʼsir etadi.

### Rivojlanishi

Kasallik hayvondan og‘iz, jarohatlangan teri va shilliq pardalar orqali yuqadi hamda 2—3 oylik buzoqlar, qo‘zilar va cho‘chqa bolalarida, ko‘pincha, og‘ir, epizootik yoki panzootik ko‘rinishda o‘tadi.

Virus organizmga tushib, teri epiteliysida rivojlanadi va shu joyni yallig‘lantiradi, keyinchalik qonga o‘tib, septitsemiya avj oladi. Kasallikning tipik va xavfli (atipik) ko‘ri-nishlari bor. Tipik ko‘rinishda so‘lak ajralishi kuchayadi, kavsh qaytarish susayadi va tana harorati 40,5—41,5°gacha ko‘tariladi. Kasallikning 2—3 kuni og‘iz bo‘shlig‘ining shilimshiq pardalarida, tuyoq oralig‘i va yelin terisi epiteliysida pufakchalar vujudga keladi. Keyinchalik ular yorilib, eroziyalar paydo bo‘ladi, hayvon oqsaydi, tuyog‘i tushishi mumkin. Mastitlar, endometritlar rivojlanadi. Yosh buzoqlarda o‘tkir gastroenterit paydo bo‘lib, ko‘pincha, o‘lim bilan tugaydi. Xavfli ko‘rinish, ko‘pincha, tipik ko‘rinishning davomi bo‘lib, tuzala boshlashning 7—10-kunida birdaniga hayvon holati og‘irlashadi, yurak falaji natijasida 20—50% hayvon o‘ladi.

### Kurashish choralari

Og‘iz jarohatlari kaliy permanganat, furatsillin eritmalari bilan chayib turiladi. Tuyoq jarohatlari formalin eritmasi, yod nastoykasi yoki kaliy perman-ganatsreptotsid aralashmasi, yelin jarohatlari esa antiseptik mazlar bilan davolanadi.

### Oldini olish

Karantin e‘lon qilinadi, faol va passiv immunizatsiya tashkil etiladi, kasal hayvonlar sog‘lomlaridan ajratib davolanadi. Molxonalar har kuni dezinfeksiya qilinadi. Dezinfeksiya uchun 1% formaldegid eritmasi tavsiya etiladi. Go‘ng biotermik yo‘l bilan zararsizlantiriladi. Shunday xayvonlarning go‘sh t va sut mahsulotlarini qaynatib iste‘mol qilish mumkin. Odamlar Oqsil kasalligi bilan juda kam kasallanadi. Ularga Oqsil kasalligi kasal hayvonlar orqali, xom sut iste‘mol qilganda yuqishi mumkin

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

#### Asosiy adabiyotlar.

- 1 Yuldasheva F. S. Ko‘z kasalliklari, Toshkent, Cho‘lpon, 2008 y
2. Yusupova M. S. Ko‘z kasalliklari, Toshkent, Cho‘lpon, 2004 y

#### Foydalaniladigan internet manbalari.

- 1 www.Med info .uz
- 2.www. Ziyonet .uz
3. www. Library .uz
4. www. Buhti.uz
5. www. TTA.uz
- 6.www. Google .uz